O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI HUZURIDAGI KADASTR AGENTLIGI

BUYRUQ

№ 21-14 Toshkent sh. 31. 01. 2022

Kadastr agentligi va uning hududiy boshqarmalari, Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalari, Agentlik tasarrufidagi tashkilotlariga ishga qabul qilish tartibini to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Raisining 2021-yil 11-oktabrdagi 512-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash hamda Kadastr agentligi tizimidagi lavozimlarga ishga qabul qilishda tanlovlar o‘tkazish jarayonlarining shaffofligini ta’minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish bo‘yicha komissiya a’zolari tarkibi **1-ilovaga** muvofiq;

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, uning hududiy boshqarmalari hamda tasarrufidagi tashkilotlarga ishga qabul qilish tartibi **2-ilovaga** muvofiq;

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tanlov komissiyasi suhbat varag‘i namunasi **3-ilovaga** muvofiq;

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tanlov komissiyasi bayoni namunasi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, Kadastr agentligi va uning hududiy boshqarmalari, Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalari, Agentlik tasarrufidagi tashkilotlardagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilish faqatgina **“Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali” dasturiy-apparat kompleksi** (vacancy.argos.uz) orqali amalga oshiriladi.

3. Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari, Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarma boshliqlari, tasarrufidagi barcha tashkilotlar rahbarlari:

bir kun muddatda vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish uchun tanlov o'tkazish bo'yicha Tanlov komissiyasi tarkibini tasdiqlasin;

mazkur buyruq va tartib talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlasin.

4. Moliya-iqtisod va buxgalteriya boshqarmasi (F.Sobitov) Ishlar boshqarmasi (R.Inomov) - nomzodlarni test sinovidan o'tkazish uchun kompyuter, internet tarmog'i, videoyozuv qurilmalari va boshqa kerakli jihozlar bilan ta'minlab, alohida xona ajratilsin.

5. Agentlikning Direktor o'rinbosari (M.Mirmaksudov), "Kompyuterlashtirish, geoaxborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi" DUK (X.Turg'unov) - nomzodlarni test sinovidan o'tkazish maqsadida kompyuter, internet tarmog'i, videoyozuv qurilmalari va boshqa kerakli jihozlarning muntazam ishlashini ta'minlab borsin.

6. Agentlikning direktor o'rinbosarlari, Kadrlar bo'limi boshlig'i, Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari, Davlat kadastrlari palatasi va tasarrufidagi tashkilotlar rahbarlari - xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilishda mazkur buyruq talablariga rioya etilishini nazorat qilib borsin.

7. Tashkiliy nazorat va tahlil boshqarmasi (I.Yusubjonov) - mazkur buyruq **bir kun muddatda** Kadastr agentligi hududiy boshqarmalari, Davlat kadastrlari palatasi va tizim tashkilotlariga yetkazilishi ta'minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish Direktorning birinchi o'rinbosari A.Allaberganov zimmasiga yuklansin.

Direktor **F. Umarov**

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 31-01 dagi 21-14 -son buyrug‘iga
1-ilova

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish bo‘yicha komissiya a’zolari
TARKIBI

T.r.	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Allaberganov Atabek Validjanovich	Direktorning birinchi o‘rinbosari, **komissiya raisi**
2.	Olimov Shovkat Komil o‘g‘li	Kadrlar bo‘limi boshlig‘i, **komissiya raisi o‘rinbosari**
3.	Fayzullayev Murat Muxtarovich	Yer va kadastr nazorati boshqarmasi boshlig‘i, **komissiya a’zosi**
4.	Sultanov Feruz Baxritdinovich	Iqtisodiy tahlil va strategik rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, **komissiya a’zosi**
5.	Latipov Nosir Nurullayevich	Milliy geoaxborot tizimini muvofiqlashtirish va Davlat kadastrlari boshqarmasi boshlig‘i, **komissiya a’zosi**
6.	Shamansurov Baxtiyor Kaxramonovich	Komplayens-nazorat xizmati boshlig‘i, **komissiya a’zosi**
7.	Amirqulov Djamshid Djumayevich	Yuridik boshqarma bosh yuriskonsulti, **komissiya a’zosi**
8.	*Lavozimiga ko‘ra*	Tanlov o‘tkaziladigan bo‘sh lavozim mavjud tarkibiy bo‘linma rahbari, **komissiya a’zosi**
9.	*Lavozimiga ko‘ra*	Kadrlar bo‘limi mutaxassislari, **komissiya kotibi**

Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi
Kadastr agentligining
2022-yil 31 01 dagi
21-14 - sonli buyrug'iga
ilova

Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va uning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarga ishga qabul qilish
TARTIBI

Mazkur Tartib O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son va "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 7-sentabrdagi PQ–4819-son qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi to'g'risidagi hamda Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlash haqida" 2021-yil 2-fevraldagi 66-son qaroriga hamda Davlat soliq qo'mitasi Raisining 2021-yil 11-oktabrdagi 512-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qabul qilish tartibi to'g'risida" Nizom talablaridan kelib chiqib, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va uning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarga ishga qabul qilish va boshqa doimiy ishga o'tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik deb yuritiladi) va uning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlaridagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilishda **ochiq tanlov** – shaffoflikni ta'minlash, ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq maxsus elektron dastur asosida talabgor fuqarolar va tizimga faoliyat yuritayotgan xodimlarning barchasiga teng imkoniyatlardan foydalangan holda saralab olish maqsadida o'tkaziladi.

2. Mazkur Tartibda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Kadastr agentligi tizimi – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va uning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar;

vakant lavozim – qonunchilikka muvofiq tegishli malakaga ega xodim qabul qilinishi mumkin bo'lgan Kadastr agentligi tizimining boshqaruv toifasidagi bo'sh turgan lavozim;

nomzod – vakant lavozimga ishga kirish uchun belgilangan tartibda elektron tarzda murojaat qilgan jismoniy shaxs yoki mazkur lavozimga ishga kirish (o'tish) xohishini bildirgan tizimda faoliyat yuritayotgan xodim;

tanlov – mazkur Tartib talablari asosida o'tkaziladigan, Kadastr agentligi tizimining oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish bo'yicha talablarga bilimi, malakasi, kasbiy ko'nikmasi, shaxsiy-psixologik xususiyatlari mosligini aniqlashga qaratilgan, mehnat shartnomasini tuzishdan oldingi holatlar majmui;

test sinovlari – nomzodning kasbiy malakasini maxsus tayyorlangan savollar orqali tegishli lavozim bo'yicha belgilangan eng kam malaka talablariga mosligini aniqlash tadbirlari;

shaxsiga oid ma'lumotlarni o'rganish – nomzodning shaxsiy va axloqiy, amaliy ishda namoyon qilgan kasbiy, ma'naviy va ishchanlik sifatlarini aniqlash maqsadida ish faoliyatini o'rganib chiqish tadbirlari;

suhbatlashish – Tanlov komissiyasi a'zolari o'rtasida nomzodning kasbiy salohiyati va ishchanligini aniqlash bo'yicha individual tarzda o'tkaziladigan suhbat,

3. Mazkur Tartib bo'yicha tanlov bosqichlari quyidagi lavozimlarga tatbiq etilmaydi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomenklaturasiga kiritilgan lavozimlarga;

Ishlab chiqarish, texnik va xizmat ko'rsatuvchi toifadagi lavozimlarga.

4. Tanlov mehnatga oid qonunchilik hujjatlari hamda mazkur Tartib talablariga asosan amalga oshiriladi.

5. Tanlovda ishtirok etish uchun qoida tariqasida, davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash huquqi qonunchilik bilan cheklanmagan va tegishli lavozimni egallash uchun malaka talablariga javob beradigan fuqarolar va tizim xodimlari qo'yiladi.

2-bob. Tanlovni tashkil etish

6. Vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish uchun tanlov o'tkazish maqsadida Agentlik va Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati, ularning hududiy boshqarmalari tizimidagi korxona va tashkilotlarida Tanlov komissiyasi tuziladi.

Tanlov komissiyasi tarkibi ish beruvchining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

7. Qoida tariqasida Tanlov komissiyasi tarkibiga Agentlik va uning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning quyidagi xodimlari kiritiladi:

Rahbar o'rinbosari - komissiya raisi;

kadrlar xizmati rahbari yoki xodimi;

komplayens-nazorat xizmati rahbari yoki xodimi;

yuridik xizmat rahbari yoki xodimi;

tanlov o'tkaziladigan bo'sh lavozim mavjud tarkibiy bo'linma rahbari.

Zaruratga qarab tanlov komissiyasi tarkibiga, tanlov o'tkaziladigan bo'sh lavozimning xususiyatidan kelib chiqib, boshqa shaxslar ham kiritilishi mumkin.

Tanlov komissiyasi mas'ul kotibi - kadrlar xizmati rahbari yoki xodimi hisoblanadi.

8. Tanlovni tashkil etish kadrlar bo'limi (keyingi o'rinda – mas'ul kotib) tomonidan amalga oshiriladi.

9. Tanlov komissiyasi nomzodlar bilan suhbat o'tkazadi.

10. Mas'ul kotib:

tanlovni e'lon qiladi;

nomzodlardan hujjatlarni qabul qiladi;

tanlov bosqichlarini tashkil etadi;

ishga qabul qilish yoki ishga qabul qilishni rad etish to'g'risida qaror haqida nomzodni xabardor qiladi.

11. Tanlov quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

birinchi bosqich – tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon qilish;

ikkinchi bosqich – malakaga oid talablarga muvofiqligini o'rganish;

uchinchi bosqich – test sinovlaridan o'tkazish;

to'rtinchi bosqich – shaxsiga oid ma'lumotlarni o'rganish;

beshinchi bosqich – suhbat o'tkazish.

12. Tanlov o'tkazishda oshkoralik va xolislikni ta'minlash maqsadida uchinchi va beshinchi bosqichlarda videoyozuv qurilmalaridan foydalaniladi.

3-bob. Tanlov o‘tkazish to‘g‘risida e’lon joylashtirish

13. Tanlov o‘tkazish to‘g‘risida e’lon:

vakant lavozimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan foydalangan holda “Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali” dasturiy-apparat kompleksiga (vacancy.argos.uz) (keyingi o‘rinlarda - sayt);

Agentlikning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi e’lon sahifalariga joylashtiriladi.

Ehtiyojdan kelib chiqib, ommaviy axborot vositalari va davriy nashrlarda joylashtirilishi ham mumkin.

14. Mas’ul kotib vakant lavozimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni saytga, Agentlikning rasmiy veb-saytiga, ijtimoiy tarmoqlaridagi e’lon sahifalariga hamda ommaviy axborot vositalariga joylashtirilishini ta’minlaydi.

Lavozimlarning ayrim toifalariga tayinlash uchun qo‘shimcha talablar mavjud bo‘lgan taqdirda, ushbu lavozimlarga e’lon berishda e’longa qo‘shimcha talablar haqida ma’lumot kiritiladi.

Tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi e’londa quyidagilar ko‘rsatiladi:

nomzodning malakasiga qo‘yiladigan talablar;

lavozim majburiyatlari;

ish sharoitlari.

15. Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha nomzodlarning arizalarini qabul qilish muddati tanlov e’lon qilingan kundan boshlab 10 kalendar kunni tashkil qiladi.

Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha arizalar kelib tushmagan taqdirda, arizalarni qabul qilish muddati avtomatik tarzda 10 kalendar kunga uzaytiriladi.

16. Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha arizalarni qabul qilish faqat nomzodlar tomonidan saytdagi elektron so‘rovnomani to‘ldirish orqali amalga oshiriladi.

Bunda, nomzodga bir vaqtning o‘zida uchtadan ortiq bo‘lmagan vakant lavozimni egallash uchun tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi.

Nomzod xohishiga ko‘ra, arizaga o‘z malakasini tasdiqlovchi diplom, sertifikat va boshqa hujjatlarning elektron nusxalarini ham ilova qilishi mumkin,

Arizalar qabul qilishda nomzodlardan hujjatlar va ularning nusxalarini qog‘oz shaklida talab qilish taqiqlanadi.

17. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo‘yicha ariza taqdim qilishda yolg‘on ma’lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etilganligi aniqlanishi ularni tanlovdan chetlatish uchun asos hisoblanadi.

18. Tanlov unda ishtirok etish uchun kamida ikkita nomzoddan ariza kelib tushgan taqdirda o‘tkaziladi, Tanlovda ishtirok etish uchun bitta ariza kelib tushgan taqdirda, istisno tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishilgan holda tanlov komissiyasi rahbarining ruxsati bilan tanlov o‘tkazilishi mumkin.

19. Mas’ul kotib tomonidan ariza qabul qilish muddati tugagan kundan e’tiboran 3 ish kuni mobaynida:

nomzodning hujjatlarini vakant lavozimni egallash bo‘yicha malaka talablarga mosligi o‘rganib chiqiladi;

o‘rganish natijasida malaka talablariga muvofiq bo‘lgan nomzodlar tanlov ishtirokchilari ro‘yxatiga kiritiladi, malaka talablariga muvofiq bo‘lmagan nomzodlar tanlov ishtirokchilari ro‘yxatiga kiritilmaydi va o‘rnatilgan tartibda xabardor qilinadi;

sayt orqali tanlov bosqichi o‘tish joyi va vaqti to‘g‘risida nomzodlarga xabar berilishini ta’minlaydi.

Tanlov unda ishtirok etish bo‘yicha arizalar qabul qilish muddati tugagan kundan boshlab 15 ish kuni mobaynida o‘tkazilishi lozim.

20. Tanlovlarni tashkil etish va o‘tkazishda belgilangan qoidaga rioya etmaslik holatlari, shuningdek, tanlov komissiyasining xolis qaror qabul qilishiga ta’sir o‘tkazgan noqonuniy xatti-harakatlar aniqlangan taqdirda, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tanlov natijasini to‘liq yoki qisman bekor qilish huquqiga ega.

4-bob. Test sinovlarini o‘tkazish

21. Test sinovlari nomzodlarning shaxsiy va kasbiy bilimlarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

22. Test savollari (topshiriqlari) Agentlik tomonidan ishlab chiqiladi va doimiy ravishda yangilab boriladi.

Bunda, savollar Agentlikning darajasi (respublika, hudud va tuman)ga muvofiq hamda vakant lavozimning xususiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi mumkin.

23. Test sinovlari mas’ul kotib tomonidan alohida bino yoki xonada onlayn tarzda tashkil qilinadi.

24. Nomzodning test savollari umumiy ko‘rsatkichining kamida 60 foiziga teng ball to‘plashi imtihon natijalarini ijobiy deb topish uchun asos bo‘ladi.

25. Test sinovlari natijalari Tanlov komissiyasining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi va test sinovlari o‘tkazilgan kundan e’tiboran 3 ish kunidan kechiktirmasdan saytda e’lon qilinadi.

26. Test sinovlarini muvaffaqiyatli topshira olmagan (salbiy natijalar olgan) nomzodlar yangi tanlovda belgilangan tartibda qayta qatnashishi mumkin.

5-bob. Nomzodning shaxsiga oid ma’lumotlarni o‘rganish

27. Nomzodning shaxsiga oid ma’lumotlarini o‘rganish Komplayens-nazorat xizmati tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘rganishda:

ish faoliyati davomida unga nisbatan to‘plangan salbiy tusdagi (xizmat tekshiruvi yoki o‘rganishlar o‘tkazilganligi) ma’lumotlar, ishdan bo‘shash sabablari;

belgilangan tartibda huquqiy layoqatsiz yoki huquqiy layoqati cheklangan deb e’tirof etilganligi (zaruratdan kelib chiqib, nomzodlardan tegishli ma’lumotnomalar so‘ralishi mumkin);

sudlanganligi, jinoyat sodir etganligi uchun ilgari sudlangan fuqarolar ularga nisbatan jazo qo‘llanilganligidan, sudlanganlik holati tugallanganligidan yoki olib tashlanganligidan va amnistiya akti qo‘llanilganligidan qat’iy nazar (ehtiyotsizlik orqasida, shu jumladan, mansab mavqeyini suiiste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyat sodir etganligi uchun sudlangan fuqarolar bundan mustasno);

muqaddam ish beruvchining tashabbusi bilan Kadastr agentligi tizimidan bo‘shatilgan (Mehnat kodeksining 100-moddasi 2-qismi 1, 2 va 5-bandi bilan bo‘shatilganlar bundan mustasno), shuningdek, boshqa organ va tashkilotlardan obro‘sini to‘kadigan xatti-harakatlar sodir etganligi uchun bo‘shatilganligi tekshiriladi.

28. Nomzodning shaxsiga oid ma’lumotlari o‘rganish natijasiga ko‘ra, Komplayens-nazorat xizmati tuzilmalari tomonidan nomzodni Kadastr agentligi tizimiga ishga qabul qilish “maqsadga muvofiq” yoki “maqsadga muvofiq emas”ligi yuzasidan xulosa qabul qilinadi.

29. Nomzodni Agentlik va uning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlariga ishga qabul qilishni "maqsadga muvofiq emas" deb xulosa qilinishi uni tanlovdan chiqarishga asos hisoblanadi.

30. Agentlik va uning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlariga ishga qabul qilishda nomzodlarning shaxsiga oid ma'lumotlari tashkilotlarning so'roviga asosan tegishli hududiy boshqarmalarining Komplayens-nazorat xizmati xodimlari tomonidan o'rganiladi va xulosa beriladi.

6-bob. Suhbat o'tkazish

31. Suhbat tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Suhbatda tanlov komissiyasi a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

Agar tanlov komissiyasi a'zosi suhbatdan o'tayotgan shaxsning yaqin qarindoshi bo'lsa, suhbat natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, komissiya a'zosi o'zining tanlov suhbatida ishtirok etishini rad qilish haqida komissiyasiga xabar berishi shart.

32. Tanlov komissiyasi a'zolari har bir nomzodga ko'pi bilan beshta savol beradi.

Tanlov komissiyasi a'zolari har bir savolga berilgan javobni baholaydi.

33. Har bir nomzod bilan o'tkazilgan suhbat natijalari bo'yicha mazkur Tartibning 1-ilovasiga muvofiq shaklda suhbat varaqasi to'ldiriladi.

34. Tanlov komissiyasining har bir a'zosi suhbat varaqasida quyidagi jumlalardan birini tanlash orqali o'z tavsiyalarini ko'rsatadi:

mehnat shartnomasini tuzish tavsiya etiladi;

dastlabki sinov muddati bilan mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etiladi;

mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etilmaydi.

35. Ishga qabul qilishda ustunlik mehnat shartnomasi tuzish bo'yicha tanlov komissiyasi a'zolarining eng ko'p ijobiy tavsiyalarini olgan nomzodga beriladi va ushbu Tartibning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

36. Agar tanlov komissiyasi a'zolarining ijobiy xulosalari teng bo'lsa, tanlov komissiyasi raisining xulosasiga asoslanib, yakuniy xulosa beriladi.

37. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi suhbatda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish uchun o'z vakilini yuborish huquqiga ega.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi uning vakili tomonidan bayonnomada keltirilgan holatlar bo'yicha tekshirish o'tkazish va davlat organi yoki tashkilotiga suhbat natijalarini yoki tanlovni butunlay bekor qilish bo'yicha taqdimnoma kiritish huquqiga ega.

38. Nomzodlar tanlov komissiyasi xulosasidan norozi bo'lgan taqdirda, xulosa qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddatda tanlov natijalari bo'yicha komissiya xulosasi ustidan Agentlik rahbariga yoki yuqori turuvchi davlat organi yoxud sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Test va suhbat o'tkazilishi to'g'risida o'rnatilgan tartibda xabardor qilingan, lekin unda ishtirok etmagan nomzodlar ushbu bosqichdan o'tmagan deb hisoblanadi.

39. Tanlov komissiyasining nomzodni ishga qabul qilish bo'yicha tavsiya berilgan (vazirlik yoki idora tomonidan ijobiy xulosa berilgan) kundan e'tiboran belgilangan tartibda bir hafta mobaynida rahbar tanlov g'olibi bilan mehnat shartnomasini tuzadi.

40. Agar qonunchilik hujjatlarida vakant lavozimga tayinlashda nomzodni tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishish lozimligi belgilangan bo'lsa, mas'ul kotib uning tegishli hujjatlarini vazirlik yoki idoraga kelishish uchun yuborishi lozim hamda ijobiy javob olingandan so'ng belgilangan tartibda mehnat shartnomasini tuzish choralarini ko'radi.

7-bob. Ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash

41. Tanlov natijalariga ko'ra, Kadastr agentligi tizimiga o'zlarining kasb malakasi, ishchanlik, shaxsiy va ma'naviy-axloqiy sifatlariga, ma'lumoti darajasiga va salomatligiga ko'ra Agentlikka yuklangan vazifalarning bajarilishini ta'minlashga qodir bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadilar.

42. Kadastr agentligi tizimiga soha bo'yicha oliy ta'lim darajasidan kam bo'lmagan kadastr va yer tuzish, geodezist, topograf, iqtisodiyot, huquq, axborot texnologiyalari sohasidagi yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar tomonidan tanlov asosida egallanadi.

8-bob. Lavozimlar nomenklaturasi

43. Quyidagi mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi:

Kadastr agentligi Direktori

44. Quyidagi mansabdor shaxslar Davlat soliq qo'mitasi raisi tavsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi:

Kadastr agentligi direktorining birinchi o'rinbosari

Kadastr agentligi direktorining o'rinbosarlari

45. Quyidagi mansabdor shaxslar Kadastr agentligi direktori tavsiyasiga binoan Davlat soliq qo'mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

Kadastr agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari;

Davlat kadastrlari palatasi raisi va uning o'rinbosarlari

Kadastr agentligining tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari;

46. Quyidagi mansabdor shaxslar Kadastr agentligi direktori tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Raisi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'linmalari boshliqlari;

Kadastr agentligi tizimidagi boshqa tashkilotlar rahbarlari "Respublika aerogeodeziya markazi" DK, "Kompyuterlashtirish, geoaxborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi" DUK, Davlat kartografiya-geodeziya fondi, "Kartografiya" davlat ilmiy ishlab chiqarish korxonasi, Toshkent geodeziya va kartografiya kolleji, shuningdek, ularning komplayens nazorat xizmati xodimlari;

47. Quyidagi mansabdor shaxslar Kadastr agentligi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

Kadastr agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari boshliqlari o'rinbosarlari;

Tizim tashkilot rahbar o'rinbosarlari ("Respublika aerogeodeziya markazi" DK, "Kompyuterlashtirish, geoaxborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi" DUK, Davlat kartografiya-geodeziya fondi, "Kartografiya" davlat ilmiy ishlab chiqarish korxonasi, Toshkent geodeziya va kartografiya kolleji);

Kadastr agentligining Markaziy apparati boshqarmalar, bo'limlar va mustaqil bo'limlar boshliqlari, mutaxassislar, yordamchi xodimlar;

48. Quyidagi mansabdor shaxslar Kadastr agentligi direktori bilan kelishilgan holda tizim tashkilotlari va hududiy boshqarma boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

Agentlikning hududiy boshqarmalari, Agentlik tizimidagi boshqa tashkilotlar, Davlat kadastrlari palatasining markaziy apparati boshqarma boshliqlari va mustaqil bo‘lim boshliqlari;

Birinchi bo‘limga mas’ul xodimlar;

Kadrlar masalalari bo‘yicha mas’ul xodimlar;

Axborot xizmatiga mas’ul xodimlar;

Yuridik xizmat xodimlari;

49. Quyidagi mansabdor shaxslar tegishliligi bo‘yicha kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

Direktorning matbuot kotibi - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi va uning hududiy boshqarmalari bilan;

Kadrlar bo‘limi boshlig‘i - Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan;

Komplayens xizmati boshlig‘i - Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan;

Tashkiliy nazorat va tahlil boshqarmasi boshlig‘i - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qarorlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan kelishish belgilangan lavozimlar xam tegishliligi bo‘yicha kelishiladi.

50. Mazkur Nizomning 44-50-bandlarida keltirilmagan lavozimlar tegishliligi bo‘yicha tizim tashkilotlari va hududiy boshqarma boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

tizim tashkilotlari va hududiy boshqarma mansabdor shaxslari, mutaxassislar, ishlab chiqarish, yordamchi, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari .

Xususan, Kadastr agentligi nomenklaturasiga kiruvchi hamda yuqorida kelishish uchun ko‘rsatilgan lavozimlar vaqtincha vazifasini bajaruvchi, vazifa bajaruvchi kabi xizmat vazifalarni yuklash, tayinlash qat’iy man etiladi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

51.Tanlov jarayoni ishtirokchilariga nomzodlarning shaxsiy ma’lumotlarini oshkor qilmaslik mas’uliyati yuklanadi.

52.Mazkur Tartibda belgilangan qoidalar tizimda ishlab turgan xodimlarni, bo‘sh vakant lavozimlarga rotatsiya qilishga tatbiq etilmaydi.

53. Ushbu Tartib talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan.

Davlat soliq qo‘mitasi raisi o‘rinbosari **M.Maxkamov**

“___” _____ 2021-yil.

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 31-01 dagi 21-14-son buyrug‘iga
3-ilova

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi
Tanlov komissiyasi
SUHBAT VARAG‘I
namunasi

(suhbat o‘tkaziladigan joy) **20__-yil ___ - _____**

Ism, familiyasi, otasining ismi	
Tug‘ilgan yili va joyi	
Ma’lumoti	
Diplom bo‘yicha mutaxassisligi	
Amaldagi lavozimi	
Tavsiya etilayotgan lavozimi	

Komissiya a’zosi/ F.I.Sh, lavozimi/_____

_____

Bildirilgan fikr va mulohaza *(Tavsiya: mehnat shartnomasini tuzish tavsiya etiladi; dastlabki sinov muddati bilan mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etiladi; mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etilmaydi)*

_____

_____

_____

_____

_____

_____/imzo/

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 31-01 dagi 21-14-son buyrug‘iga
4-ilova

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi
Tanlov komissiyasi
BAYONI
namunasi

(tanlov o‘tkaziladigan joy) 20____-yil___ - _____

Komissiya raisi: _____

Komissiya a’zolari:

_____ _____

_____ _____

_____ _____

Taklif qilinganlar:

_____ _____

_____ _____

Yig‘ilish kun tartibi:

_____

_____

bo‘yicha o‘tkazilgan tanlovda Tanlov komissiyasining xulosasi (qabul qilishning asoslantirilishi)

_____

_____

Tanlov komissiyasi raisi: _____

Tanlov komissiyasi kotibi: _____

Tanlov komissiyasi a’zolari: _____